UDK: 811.111 G‘ – 21 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a164**

INGLIZ TILIDAGI TOPONIMLARNI IZOHLASHDA LEKSIKOGRAFIK TAMOYILLAR (BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA JOY NOMLARI LUG‘ATLARI MISOLIDA)

LEXICOGRAPHIC PRINCIPLES IN THE INTERPRETATION OF TOPONYMS IN ENGLISH (IN THE EXAMPLE OF BRITISH AND AMERICAN PLACE NAME DICTIONARIES)

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ТОЛКОВАНИЯ ТОПОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ БРИТАНСКИХ И АМЕРИКАНСКИХ СЛОВАРЕЙ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ)

Ganiyeva Gulnozaxon Zaxirovna[1]

[1]**Ganiyeva Gulnozaxon Zaxirovna** – Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili toponimlari, ularning toponimik lug‘atlarda izohlanishi haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Toponimlarni lug‘atlarga joylash, ularning o‘ziga xos leksikografik xususiyatlari bo‘yicha, shuningdek, leksikografiya va shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar to‘grisida batafsil to‘xtalingan. Ularning ishlari maqolada o‘z aksini topgan va munosabat bildirilgan. Shu bilan birga toponimik lug‘atlar, ularning mualliflari, yondashuvlar va har bir lug‘at yaratilishida keltirilgan uslublar va tamoyillarga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, uning asosiy qismida ikki nufuzli toponimik lug‘atlar o‘zaro qiyoslangan. Har ikkala lug‘atlarda keltirilgan bir xil toponimik birliklar tanlab olinib, aynan lug‘atda keltirilgan izohlanish holati, ya’ni asliyati korsatib o‘tilgan. O‘xshash va farqli tomonlari qiyoslangan. Izohlanish holatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье отдельно рассматриваются английские топонимы и их толкование в топонимических словарях.

Подробно рассмотрено размещение топонимов в словарях, их специфические лексикографические особенности, а также лексикография и ученые, проводившие научные исследования в этой области. В статье отражена их работа и выражена реакция.

При этом особое внимание уделяется топонимическим словарям, их авторам, подходам и методам, принципам, представленным в каждом разделе словаря.

Практическая значимость статьи заключается в том, что в ее основной части сравниваются два авторитетных топонимических словаря.

Выбираются одни и те же топонимические единицы, указанные в обоих словарях, и показывается состояние толкования, данное в словаре, то есть оригинальность. Сходства и различия сравниваются. Анализируются случаи объяснения.

Abstract

In this article, English toponyms and their interpretation in toponymic dictionaries are discussed separately.

Placement of toponyms in dictionaries, their specific lexicographic features, as well as lexicography and scientists who conducted scientific research in this field are discussed in detail. Their work is reflected in the article and the reaction is expressed. At the same time, special attention is paid to toponymic dictionaries, their authors, approaches and methods and principles presented in each dictionary section.

The practical importance of the article is that two authoritative toponymic dictionaries are compared in its main part.

The same toponymic units listed in both dictionaries are selected, and the state of interpretation given in the dictionary, that is, the originality, is shown. The similarities and differences are compared. The cases of explanation are analyzed.

Kalit so‘zlar: *Toponim, toponimik birlik, leksikografiya, tamoyillar, o‘quv izohli lug‘at, lug‘at maqolasi, bosh so‘z, izoh, joy nomlari, toponimik lug‘atlar.*

Key words: *Toponym, toponymic unit, lexicography, principles, educational annotated dictionary, dictionary article, main word, explanation, place names, toponymic dictionaries.*

Ключевые слова: *Топоним, топонимическая единица, лексикография, принципы, учебный словарь, словарная статья, основное слово, объяснение, топонимы, топонимические словари.*

KIRISH

Ma’lumki, toponimlarni qadimdan to hozirgacha saqlanib kelishida lug‘atshunoslik sohasining o‘rni beqiyos. Toponimlarni o‘rganishda toponimik lug‘atlar muhim ahamiyatga ega, chunki aynan toponimik lug‘atlar orqali biz joy nomlari haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lamiz.

V.Dubichinskiy lug‘at tuzishning jamoaviy jarayonini shakllantirish, lug‘at loyihasini tuzish, lug‘at kartotekasini tuzish (yoki ma’lumotlarning komp’yuter bankini), tamoyillar asosida lug‘at

so‘zligini tanlash, lug‘at maqolasi tuzilishining mualliflik konsepsiyasini ishlab chiqish, tanlab olingan til leksemalarining bevosita tarjimasi, lug‘atni nashrga tayyorlash kabi bir necha bosqichlarga bo‘ladi[6].

Professor M.I.Umarxodjayev leksik birliklarni, asosan frazeologik birliklarni lug‘atga tanlash va joylash tamoyillariga atroflicha yondashgan. Jumladan, olim frazeologik birliklarni lug‘atlarga tanlash va joylashtirishda umumlingvistik hamda frazeologik tamoyillarga tayangan. M.I.Umarxodjayevning fikricha, frazeologik birliklarni joylashtirishda, birinchidan, frazeologik birliklarning leksik tarkibini aniqlashtirib olish zarur. Ikkinchidan, bevosita bunday birliklar muhitini ko‘ra olish lozim. Uchinchidan, tasavvurni o‘rnata olish kerak. Aks holda frazeologizmlarning majburiy kontekstini aniqlash mumkin emas[11].

Bizning fikrimizcha, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan tamoyillar[12]ni toponimik lug‘at tuzishda ham qo‘llash mumkin. Bunda, eng avvalo, frazeologik birliklar emas, toponimik birliklar qatlami aniqlab olinsa kifoya. Qayd etilgan ma’lumotlarga tayangan holda o‘quv-toponimik lug‘atini tuzishda quyidagi tamoyillarni tavsiya qilishimiz mumkin:

- lug‘at maqsadini belgilab olish;
- lug‘at qabul qiluvchisi (adresati), ya’ni kimlar uchun mo‘ljallanganligini aniqlashtirish;
- lug‘atning qaysi turga mansub bo‘lishini aniqlab olish (izohli, qomusiy yoki boshqa, shuningdek, bir tilli, ikki yoki ko‘p tilli, o‘quv lug‘atlari asosan bir tilli bo‘ladi);
- lug‘at hajmini belgilash;
- lug‘at tarkibidagi toponimik birliklarning soni (o‘quv toponimik lug‘atlari asosan 1000-5000 tagacha bo‘lgan toponimlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq) ham;
- lug‘at strukturasini tuzib olish;
- lug‘at uchun mos toponimlar muhitini ko‘ra biliSh;
- toponimik lug‘atga toponimlarni tanlashda uzual metoddan foydalana olish;
- tanlanayotgan toponim joylashgan hududda istiqomat qiladigan yoki shu hududga tashrif buyurishni mo‘ljallayotganlar bilan yozma yoki og‘zaki so‘rovnoma o‘tkazish;
- so‘rovnoma natijalarini tahlil qilish va keraklilarini qayd etish;
- to‘plangan ma’lumotlarni tasdiqlash;
- manbalarni chop etish.

Ushbu bosqich amalga oshirilgan ishlarning eng so‘nggisi bo‘lib, barcha ma’lumotlar to‘plam holiga keltiriladi va kerakli manba (toponimik ma’lumotnoma yoki lug‘at) sifatida chop etiladi. Bu ma’lumotlar to‘plami kitob holatida yoki raqamli, ya’ni elektron dastur holatida ommaga taqdim etilishi mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, o‘quv toponimik lug‘atni chop etishda uning poligrafik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz tili leksikografiyasi ko‘p yillar davomida mahalliy va xorijiy tilshunoslarning tadqiqot ob’yekti bo‘lib kelgan, chunki ushbu fan dunyodagi eng qadimgi va ko‘p asrlik hayoti davomida ingliz tilshunos olimlarining to‘plagan muhim tajribasi bo‘lib, ularning eng yaxshi lisoniy yutuqlarini o‘zida aks ettiradi.

Tadqiqotlar ingliz tilidagi lug‘atlarni yaratish bilan bog‘liq asosiy tendensiyalarni bir necha bor ta’riflab berdi, ular qiyin, nodir va tushunarsiz (difficult, remarkable, obscurewords) so‘zlarning dastlabki izohli lug‘atlari deb nomlangan bo‘lib, bunday lug‘atlarning mualliflari foydalanuvchilarga buyuk yozuvchilarning so‘zlardan foydalanish standartini qabul qilishni tavsiya qildilar. Ushbu lug‘atlarda differensial lug‘at va differensial so‘zlarni qayta ishlash asosan grammatik va etimologik belgilarga qisqartirildi[8].

17-18 asrlarda J.Choser, J.Milton, U.Shekspir asarlari uchun kitob lug‘atlari paydo bo‘ldi. Shunisi e’tiborga molikki, ingliz tili leksikografiyasi singari, Buyuk Britaniyada ham Shotlandiya leksikografiyasi mustaqil ravishda rivojlanib, u ingliz tilidagi dastlabki lug‘atlarni tuzish tamoyillarini asosan takrorlagan. 1700 yilgacha Shotlandiya leksikografiyasida shotlandcha qiyin so‘zlarning lug‘atlari shakllandi, shu bilan bir vaqtning o‘zida differensial lug‘at va differensial so‘z ishlab chiqishga ega bo‘lgan ikki tilli ma’lumotnomalar (so‘zlar) paydo bo‘ldi[7].

Leksikografiya haqida so‘z ketganda, har bir tilshunos olimning ko‘z oldida akademik L.V.Sherbaning ushbu sohada qoldirgan madaniy merosi gavdalanadi. Sherba o‘zining bir qancha asarlarida nafaqat tilshunoslik, balki leksikografiyaga, aynan lug‘atlar bilan ishlash masalasiga

alohida e’tibor qaratgan. Olimning “Yazikovaya sistema i rechevaya deyatelnost” nomli asarida lug‘at va uning turlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarga oydinlik kiritilgan.

Rus leksikograf olimi V.V.Dubichinskiyning fikricha, toponimik lug‘atlarning o‘ziga xos ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular tarkibida asosan ensiklopedik ma’lumotlar ko‘p: joy nomi tarixi, kelib chiqishi, nomlanishi va shu kabilar. Lekin toponimik lug‘at bilan berilgan toponimning etimologik xususiyati o‘rtasida farq bor [6].

Butun dunyo olimlari toponimlarning lug‘at shakliga keltirilishi, toponimik lug‘at tarkibining tuzilishi borasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar va hozirda ham bu jarayon davom etib kelmoqda. Jumladan, ingliz olimlaridan D.Mils, A.Rum, amerikalik olimlardan R.Styuart, A.Drey, rus olimlari Y.M.Pospelov, S.I.Garagulya, o‘zbek toponimist olimlaridan N.Oxunov, S.Qorayev, T.Nafasov kabilarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari va yaratgan toponimik lug‘atlari joy nomlari, ya’ni toponimlarning shakllanishi va saqlanishida muhim ahamiyatga ega.

Masalan, o‘zbek toponimist olimlaridan N.Oxunovning “Joy nomlari ta’biri” nomli asari toponimik lug‘atlar sirasiga kiritilgan bo‘lib, yurtimizdagi joy nomlari alfavit tarzida berib o‘tilgan va har bir toponimik birlikka alohida izoh keltirilgan[9]. T.Nafasov, V.Nafasovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati” ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at tavsifiy, etimologik tarzda tuzilgan. Lekin ba’zi toponimlar “q”-“qarang” yo‘naltiruvchi belgisi orqali boShqa sahifada berib ketilgan. Masalan: Yartepa – q. Jartepa, Yorqo‘rg‘on – q. Jarqo‘rg‘on[3]. Yu.Ahmadaliyev esa Farg‘ona viloyati toponimlarining izohli lug‘atini ishlab chiqqan[4].

Toponimist olim A.Drey toponimik lug‘at yaratishga o‘zgacha uslubda yondashadi, ya’ni u o‘zining “AQSH joy nomlarining qofiyali lug‘ati” ni yaratadi. Unga ko‘ra AQSH ning ellikta shtati nomlari alfavit tarzida berib har bir joy nomiga mos bir nechta qofiyadosh so‘zlar keltiradi.

E.M.Pospelovning “Toponimik lug‘at” (“Toponimicheskiy slovar”)[10] nomli o‘quv lug‘ati o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ham ba’zi ingliz tili toponimlari o‘z aksini topgan va bu lug‘at 1500 ta toponimdan iborat. Lug‘atning oxirida joy nomlariga oid mashqlar hamda o‘zgargan yoki qayta nomlangan joy nomlarining ro‘yxatini ko‘rish mumkin.

S.I.Garagulya yaratgan “Buyuk Britaniya va AQSH geografik nomlarining lingvokul’turologik lug‘ati”[5] esa XXI asr leksikografiyasidagi eng yangi lug‘atlardan biri hisoblanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Muallif boshqa toponimik lug‘atlardan farqli raviShda Buyuk Britaniya va AQSH geografik nomlarining lingvokulturologik lug‘atini yaratdi va aynan 2021 yilda ushbu lug‘at nashrdan chiqdi. Lug‘atda muallif ikki mamlakat toponimlarining madaniyat va til, ya’ni lingvomadaniyatga bog‘liqlik jihatlarini berib o‘tadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Toponimlarni izohlashda toponimik birlik haqidagi ma’lumotlarni dunyoning lingvistik manzarasi nuqtai nazaridan ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Toponimlarga izoh berish tamoyillarini shakllantirish uchun ingliz tili toponimik lug‘atlaridan Britaniya joy nomlari lug‘ati[2] hamda Amerika joy nomlari lug‘ati[1]dagi namunalarga murojaat qildik. Har ikkala ingliz tili lug‘atlarida uchraydigan toponimlarni tom ma’noda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Kelib chiqishi faqat Britaniya orollari hududiga daxldor bo‘lgan, hozirda ham Buyuk Britaniya, ham Amerika Qo‘shma Shtatlari hududida mavjud bo‘lgan toponimlar, ya’ni Amerikaga qachonlardir ba’zi bir sabablarga ko‘ra kirib borgan joy nomlari.

2. Kelib chiqishi faqat Amerika Qo‘shma shtatlari hududiga mansub bo‘lgan, ikkala mamlakat hududida hozirgi kunda ham mavjud bo‘lgan, lekin etimologiyasi AQSHga borib taqaladigan toponimik birliklar.

Dastlab **BJNL (DBPN)** dagi birinchi guruhga kiritilgan toponimlarning izohlanish holatlarini ko‘rib chiqamiz.

Bosh so‘z – ***Bengor*** chap tarafda, o‘ng tarafida esa unga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar va izoh berilgan. Mazkur so‘zlikdan keyin qavs ichida shu nomning qadimiy shakli berilgan. Keyingi so‘z qaysi hududga kirishi: Dovn – Shimoliy Irlandiyadagi grafliklardan biri. 555 yildagi nomi, so‘ngra qo‘Shtirnoq ichida ifodalagan ma’nosi berilgan. Shundan so‘ng asosiy izohga o‘tilgan. Izoh berishda uning etimologiyasi taxminiy keltirib o‘tilgan:

Bangor[2] (*Beannchar*) Down. *Bennchuir* 555. ‘Place of points’.The name probably refers to a pointed wattle enclosure around the original monastic settlement.

Aynan *Bengor* toponimi lug‘atning ikkita maqolasida berilgan, lekin bu toponimning boshqa hududdagisi ko‘rsatilgan. Izohlash qismi yuqoridagi bilan deyarli farq qilmaydi. Faqatgina hududlar

nomi o‘zgargan. Bu esa ushbu toponimik birlik boshqa hududda ham mavjudligini anglatadi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, har ikkala toponimlar ma’nolari ikki xil izohlangan. Bu esa uning etimologiyasiga borib taqaladi:

Bangor[2] Gwyd. *Benchoer* 634. ‘Wattled fence’. Welsh *bangor*. The reference is probably to the wattled fence that enclosed the monastery founded in 525

Keyingi izohlanayotgan toponim – ***Norfolk*.** Ushbu lug‘at so‘zligi aynan graflik ekanligi qavs ichida izohlangan. Shuningdek, nechanchi yilda qanday nomlangani, qaysi manbada uchrashi, ma’nosi qayd etilgan. Berilgan toponimning qanday yasalganligiga ham e’tibor qaratilgan:

Norfolk (the county). *Nordfolc* 1086 (DB). ‘(Territory of) the northern people (of the East Angles)’. OE *north* + *folc, see* SUFFOLK[2].

Portsmud*.* Bu toponim ham lug‘atda xuddi Norfolk kabi izohlangan. Faqat bitta farqli jihati shundaki, maqola so‘nggida uning Roman davridagi nomiga ham to‘xtalingan:

Portsmouth[2] Portsm. *Portesmuthan* late 9th cent. ‘Mouth ofthe harbour called *Port*’. OE *port* (a loan-word from Latin*portus* ‘a harbour’) + *mūtha*. The harbour was no doubtknown as *Portus* in the Roman period.

Quyida aynan shu uchta toponimik birliklarni **AJNL (APN)** dagi namunalarini ko‘rib chiqamiz va qiyoslaymiz.

Bengor toponimi izohi BJNL (DBPN) dagi izohdan tubdan farq qiladi. Chunki bu lug‘atdagi aynan shu toponimning qayerda joylashgani, nimaning sharafiga bunday nom olgani, Uels yoki Shimoliy Irlandiyadan ko‘chirilgani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, uelslik kishi sharafiga nomlanganligi haqida matn ko‘rinishida, hech qanday raqamlarsiz izohlar mavjud. Lekin bu izohda na sana, na berilgan toponimning ma’nosi bor:

Bangor[1] in ME the town is said to have been named for hymn tune. More probably the name was transferred from Bangor in Wales or in Northern Ireland. In Pa the town was named by Welshman because of slate deposits, as at Bangor in Wales.

Norfolk toponimiga berilgan izoh BJNL (DBPN) dagiga biroz o‘xshab ketadi. Uning qayerdan olingani, birinchi marta nechinchi yilda va qayerda nomlangani, keyingi davrlardagi nomlari va hatto nomning o‘zgartirilgan holatigacha izohlangan. Joy nomi ifodalagan ma’no haqida hech qanday ma’lumot berilmagan:

Norfolk[1] From the English county, the first naming being the county in MA(1643), which was later abolished. The present county in MA dates from 1793. Also from the English county are **Norfolk** in VA (1691) and in CT (1738). In NB the town was proposed as **North Fork**, Shortened to **Norfork**, but in transmission through the Post Office Dept.it was altered to the common form.

Portsmud toponimi ham xuddi Norfolk kabi izohlangan, hech qanday sana yoki ma’no haqida ma’lumot qayd etilmagan:

Portsmouth[1] from the English town, but with descriptive and strongly commendatory suggestions. All three of the Colonial naming NH, RI, VA were on harbors, and the double reason for naming seems to be clear. In OH the town was named for the one in RI.

Demak, berilgan toponimlarni har ikkala manbadan topib, ularning izohini o‘rganib chiqqach, shuni ayta olamizki, birinchi lug‘atda deyarli barcha toponimlarga oid to‘liq ma’lumot berilgan bo‘lsa, ikkinchi manbada faqatgina bitta toponimga to‘liqroq izoh berilgan. Bizning fikrimizcha, bunga yuqoridagi toponimlar Buyuk Britaniya hududida joylaShgan, o‘sha yerda paydo bo‘lgan va muallifning vatani hududida bo‘lgani, u yerdagi aholining AQSHga ko‘chishi yoki boshqa bir sabablarga ko‘ra AQSH xalqi tomonidan o‘zlashgani sababdir. Shuning uchun bu toponimlar har ikkala lug‘atga ham kiritilgan. Lekin, nima bo‘lganda ham, har bir toponimga alohida to‘liqroq ma’lumot berilsa, foydalanuvchilarni qiyinchiliklardan xalos etgan bo‘lardi.

Xuddi shu holatni, ya’ni asli AQSH hududida paydo bo‘lgan va ba’zi sabablarga ko‘ra, Britaniya orollari hududiga kirib kelgan va har ikkala lug‘atda ham mavjud bo‘lgan boshqa toponimlarga e’tibor qarataylik.

Ikkinchi guruhga kiritilgan toponimik birliklarni dastavval **BJNL (DBPN)** dagi namunalar misolida ko‘rib chiqamiz:

1.Lug‘at maqolasining boSh so‘zi – ***Vashington*** bilan boshlangan. Undan keyin shu toponim joylashgan hudud nomi qisqartmasi berilgan. Qachon, qanday nom bilan atalganiga alohida izoh mavjud. Ma’nosi va grammatik tavsifiga ham e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ushbu toponimga doir ikki maqola uchraydi. Har ikkisida ham izoh to‘liq berilgan. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu nomning AQSHdagi Vashingtonga umuman bog‘liqlik joyi yo‘q:

Washington Sundld. *Wassyngtona* 1183. ‘Estate associatedwith a man called *Hwæssa’. OE pers. name + *-ing-* + *tūn* [2].

Washington W. Sussex. *Wessingatun* 94-655, *Wasingetune* 1086(DB). ‘Estate of the family or followers of a man called*Wassa’. OE pers. name + *-inga-* + *tūn* [2].

2. Ikkinchi izoh esa ***Virjiniya*** toponimiga taalluqli. Bu toponimning qachon va qayerda paydo bo‘lgani, hozirda qaysi hududga kiriShi va hatto aslida qanday atalgani, keyinroq Amerikadagi Virjiniya toponimiga bog‘liq holda qayta nomlangani haqida ma’lumot berilgan, ma’nosi ham ko‘rsatilgan:

Virginia[2] Cavan. *Virginia* 1611. The town, founded in 1611 and originally named *Lough Ramor*, was soon after renamed from the newly-established colony of Virginia in America. Its Irish name is *Achad an Iúir*, ‘field of the yew tree’.

Quyida Vashington va Virjiniya toponimlarining **AJNL (APN)** dagi izohini tahlil qilamiz.

Vashington toponimi lug‘at maqolasida juda keng izohlangan bo‘lib, nechanchi asrda, qayerda, kimning sharafiga qo‘yilganligi barchasi to‘liq keltirilgan. Hatto maqolaning oxirigacha jami Vashington so‘zi to‘qqiz marta uchraydi va ularning har biriga izoh berilgan. Bu esa ushbu toponimning qanchalik serqirra va muhimligini anglatadi. Shuningdek, mazkur joy nomi kimning sharafiga berilganligi ham qayd etilgan:

Washington[1] The family was established in VA from the 17 the century, and some local names are thus derived. Most of them; however, honor George Washington, beginning with **Fort Washington** NY in 1776. Numerous names followed rapidly. **Washington DC**: named in commissioners who were entrussed with establishing anational capital. Washington (State): the territory was so named by act of Congress in 1853

Lug‘atda Virjiniya nomiga ham izoh to‘liq berilgan. Lekin bu yerda Virjiniya toponimiga oid ma’lumotlar to‘liq emas. Shunday bo‘lsa-da, toponim ma’nosi ham berilgan:

Virginia[1] According to the Amadus and Barlowe narrative, the country is described as ‘now called Virginia Anno 1584,’ and the name is declared to have been given by her Majestie i.e. Elithabeth I.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqotlarimiz istalgan toponim haqida ma’lumotga ega bo‘lish uchun aynan toponimik lug‘atlar zarurligi va ularning muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotladi.

Tadqiqotimiz natijasi o‘laroq ta’kidlash joizki, toponimlarni lug‘atlarga tanlashda, ularga izoh berishda leksikografik tamoyillarga asosiy e’tibor qaratilishi zarur. Yuqorida ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan har ikkala lug‘atda keltirilgan toponimik birliklar garchi shaklan bir xil ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, ularning izohlanishi turlicha tarzda berib o‘tilgan. Ba’zilari to‘liq izohlangan bo‘lsa, boshqalari qisman izohlangan, ba’zi toponimik birliklarning ma’no ifodasi to‘liq ochib berilgan, kelib chiqishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa, boshqa birlarining ma’nolari umuman qayd etilmagan. Bu esa har ikkala lug‘at o‘ziga xos leksikografik tamoyillarga asoslanib yaratilganidan, har bir lug‘at maqolasi o‘zgacha tarzda izohlanganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. George R. Stewart. American Place-Names: A Concise and Selective Dictionary for the Continental United States of America. – New York: Oxford University Press.–P. 522
2. Mills A.D. A Dictionary of BritiSh Place Names. – New York: Oxford University Press, 2011.–R. 485.
3. Nafasov T, Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchiari, kollej va litsey o‘quvchilari uchun). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – B 9.
4. Ahmadaliyev YU. Farg‘ona viloyati toponimlari. – Farg‘ona, 2009. – 140 b.
5. Garagulya S.I. Lingvokul’turologicheskiy slovar’ geograficheskix nazvaniy Velikobritanii i SSHA : slovar’ / S.I. Garagulya. – Moskva : INFRA-M, 2021. – 257 s.
6. Dubichinskiy V.V. Leksikografiyarusskogo yazika.– Moskva: Flinta-Nauka, 2008. – S. 233.
7. Karpova O. M. Vestnik Ivanovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya «Gumanitarniye nauki», 2013. – S. 48.
8. Karpova O.M. Shekspirovskaya leksikografiya novogo vremeni: vozvraSheniye glossariyev // Vestn. Ivan. gos. un-ta. Ser.: Gumanitarniye nauki, 2012. Vip. 1. – S. 48-53.
9. Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. – ToShkent: O‘zbekiston, 1994. – 64 b.
10. Pospelov ye. M. Toponimicheskiy slovar’: Okolo 1500 yedinits. – Moskva: Astrel’, 2005. – 331 s.
11. Umarxodjayev M.I. Osnovi frazeografii. – TaShkent, 1983. – S. 93-130.
12. Umarxodjayev M.I. Ocherki po sovremennoy frazeografii. –TaShkent: Fan, 1977. – S. 28.